# SHARTNOMA 1

(loyiha-smeta va qidiruv ishlarini bajarish to'g'risida)

Kitob tumani. "17" 05 2022-yil

Keyingi o‘rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan **Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan Nizom asosida ish ko‘ruvchi A.Xamidov bir tomondan va ikkinchi tomondan keyingi o‘rinlarda "Bajaruvchi" deb ataluvchi **"Qarshi Arxilyuks" xususiy korxonasi** nomidan ish yurituvchi J.Norturayev o'rtasida, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda quyidagi shartnomani tuzdilar:

## 1. Shartnoma predmeti

1.1. Bajaruvchi, Palandara MFY 12 ta qishloqlarda 200 ta sim yog'ochlarni beton stolbalarga almashtirish va elektr liniyasini ta'mirlash ishlariga loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va ekspertiza xulosasini olish ishlarini topshiradi, Buyurtmachi esa ushbu ishlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

## 2. Shartnoma bahosi va hisob-kitob qilish tartibi

2.1. Ishlarni amalga oshirishning umumiy bahosi **14 900 000 (O'n to'rt million to'qqiz yuz ming)** so‘mni tashkil qiladi va mazkur shartnomaga ilova qilinadigan loyiha xujjatlarini bajarish va moliyalashtirish jadvaliga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnomani G‘aznachilik bo'limidan ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng shartnoma belgilangan bahosining 30% miqdorida avans to‘lovini amalga oshiradi.

2.3. Ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fars-major) holatlari sabab bo'lganda yoki ishlar-xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda shartnoma bahosi o'zgartirilishi mumkin.

2.4. Har bir bosqichda bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag‘i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

2.5. Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolangandan so‘ng 5 bank kuni mobaynida Bajaruvchiga haq to‘lashni o‘z zimmasiga oladi.

2.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- ishlar qiymatini kupaytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo‘lganda;

- ishlar xajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda.

## 3. Tomonlar majburiyatlari

3.1. Bajaruvchi ishlarni dastlabki ma’lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, Buyurtmachi bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Buyurtmachi ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan birlamchi ma’lumotlar va materiallarni Bajaruvchiga taqdim qiladi.

3.3. Buyurtmachi shartnomada ko‘zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to‘lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko‘rsatilgan xajm va shartlarga muvofiq bajarilishida Bajaruvchiga yordam ko‘rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, Bajaruvchining roziligisiz shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma’lumotlarni tarqatmaslikni o‘z zimmasiga oladi.

3.4. Buyurtmachi tomonidan avans to'lovlari o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni Bajaruvchining talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

3.5. Ushbu shartnoma bo'yicha Bajaruvchi o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

## 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Ishlar tugagandan so'ng Bajaruvchi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

4.2. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Bajaruvchiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi. Agar Buyurtmachi ishlarni qabul qilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida Bajaruvchiga kamchiliklar ko'rsatilgan ishlarni qabul qilmaslik rad javobini yubormasa, ishlar qabul qilingan hisoblanadi va bunday holatda Buyurtmachi ishlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolab, bir nusxasini Bajaruvchiga qaytarishi shart.

4.3. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.4. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofik emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.5 Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

4.6 Lozim topilgan hollarda tomonlar holis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

## 5. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

5.1 Ishlar bajarilishi davrida Bajaruvchi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 6. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

6.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga chuzilsa, u holda Buyurtmachi va Bajaruvchi ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.
6.3 Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 7. Nizolarni hal etish tartibi

7.1. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi.

7.2. O'zaro kelishuvga erishilmagan taqdirda nizolar tegishliligi bo'yicha belgilangan tartibda Iqtisodiy sud tomonidan hal etiladi.

## 8. Tomonlarning javobgarligi

8.1. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan summa bahosining 50 foizidan oshmasligi lozim.

8.2. Bajaruvchi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar bahosining 50 foizidan oshmasligi lozim.

8.3. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq belgilanadi.

8.4. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

## 9. Korrupsiyaga qarshi talablar

9.1. Tomonlar:
- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari, ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishlari davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarining buzilishiga olib keladigan va/yoki korrupsiya xarakteriga ega bo'lgan, shu jumladan (ammo bu bilan cheklanmay) pora berish yoki berishni va'da qilish, ta'magirlik, pora olishga bevosita yoki bilvosita rozi bo'lish xatti-harakatlari/harakatsizliklarini sodir etmaydilar.
- Tomonlar, ularning affilangan (o'zaro bog'langan) shaxslari va xodimlari boshqa Tomonning xodimlari yoki vakolatlangan vakillarini qandaydir tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul summalari, sovg'alarni taqdim etish, ularning manziliga xizmatlarni beg'araz ko'rsatish yoki bu xodim yoki vakolatlangan vakil tomonidan uni rag'batlantiruvchi Tomon foydasiga qandaydir xatti-harakatlarni/harakatsizliklar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni bajarishdan voz kechadilar deb ma'lum qiladilar.

9.2. Tomonda ushbu Shartnomaning 9.1-bandidagi talablarni buzish sodir etilganligi yoki sodir etilishi mumkinligi to'g'risidagi shubhalar yuzaga kelgan holda, tegishli Tomon bu haqda ikkinchi Tomonni xabardor qilish, korrupsiya bilan kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining normalari buzilganligi faktining rad etib bo'lmaydigan dalillari mavjud bo'lgan holda esa – amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatlangan organlarni ham xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

## 10. Boshqa shartlar

10.1. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.2. Bajaruvchi mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, Buyurtmachini xabardor qilmagan holda uchinchi shaxslarni, jumladan, yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.3. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti buyicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosobatlariga va Bajaruvchining obyekt bo'yicha bajargan ishlariga nisbatan qo'llaniladi.

10.4.. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

10.5. Shartnoma amal qilish muddati shartnoma belgilangan tartibda g'aznachilik bo'limida ro'yxatdan o'tkandan so'ng 31.12.2022-yilgacha hisoblanadi.

## 11.Tomonlarning yuridik manzillari va bank rekvizetlari.

| «Buyurtmachi» | | «Bajaruvchi» |
|---|---|---|
| | | |
| **KITOB TUMAN HOKIMLIGI OBODONLASHTIRISH BOSHQARMASI** | | *Qarshi-Arxilyuks xususiy korxonasi* |
| Manzili: Kitob tuman<br>G. Jurabek ko'chasi 26-uy | | MANZIL: *Qarshi sh O'zbekiston 222 A uy* |
| Tel. Faks +99875 54-26-548 | | Tel: *+99899 540-76-38* |
| Shv\x401722860102327064200110001 | | *Ipoteka bank Qarshi sh bo'limi*<br>X\R *2020 8000 7043 5549 6001* |
| Budjetdan mablag oluvchi: STIR 205 308 760 | | INN: *205 213 359* OKED |
| OKONX: 90211 IFUT 39 000<br>OKED: 84130 | | OKONX ________ MFO: *00190* |
| Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i: A. Xamidov | | *Qarshi-Arxilyuks xususiy korxonasi*<br>boshlig'i: ____________ J.Norturayev |

Uzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Gaznachiligi

Gazna x/v 23402000300100001010 MFO 00014

Bankning nomi: Toshkent Markaziy bonk XKKM

Gaznachilik bulimi STIRi 201122919

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: KP52326UT040

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

**1. Loyihaning turi.**

Shartnoma

**2. Loyihaning nomi.**

"Qarshi Arxilyuks" xususiy korxonasi hamda Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi o'rtasida qiymati 14 900 000 (o'n to'rt million to'qqiz yuz ming) so'mlik loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash haqida.

**3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot.**

Kitob tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa olish uchun 16-may 2022-yilda kiritilgan.

Loyihada ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, shuningdek, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mazkur shartnoma loyihasida keltirilgan taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni hal etish tartibi qonunchilik talablariga mos keladi (loyihaning moliyaviy tomonlari huquqiy ekspertiza predmetiga kirmaydi).

Loyiha amaldagi qonunchilik asosida ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti** **N. Manzilov**

16-may 2022-yil

## Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 80181 на приобретение Palandara MFY 12ta qishloqlarda 200 ta sim yog'ochlarni beton stolbalarga almashtirish va elektr liniyasini ta'mirlash ishlariga loyiha smeta hujjatlarini tayorlash va ekspertiza xulosasini olish

Способ проведения электронный

Дата 12.05.2022

Время рассмотрения 12.05.2022 15:18

Конкурсная комиссия Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | XAMIDOV ABDISAMI SAMATOVICH | Рахбар | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Секретарь комиссии** | HAMROQULOV BEKZOD KARIM O'G'LI | Kotib | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | XAKIMOV NASRIDDIN ZUVAYDULLAYEVICH | Булим бошлиғи | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | NORQOBILOV AKRAM MAXMARAXIMOVICH | Бригадир | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | AMIROV BOBAMURAT YUSUBOVICH | Бош хисобчи | Китоб туман хокимлиги Ободонлаштириш бошқармаси |
| **Член комиссии** | IBRAGIMOVA DILSHODA O'TKIR QIZI | иқтисодчи | Китоб туман Ободонлаштириш бошқармаси |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 12.05.2022 года № лота 80181.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 70.00 / Весовой коэф. ценовой части: 30.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Услуга по разработке проектно-сметных работ** |
|---|---|
| Подробное описание | Palandara MFY 12ta qishloqlarda 200 ta sim yog'ochlarni beton stolbalarga almashtirish va elektr liniyasini ta'mirlash ishlariga loyiha smeta hujjatlarini tayorlash va ekspertiza xulosasini olish |
| Количество товара | 1.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 15 000 000.00 |
| Стартовая сумма | 15 000 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ушбу сохада ишлаган иш тажрибаси бўйича маълумот, корхона лицензияси ёки гувохномаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Ушбу сохада ишлаган иш тажрибаси бўйича маълумот, корхона лицензияси ёки гувохномаси pdf format

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **КАРШИ АРХИЛЮКС ХК** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK** | 15 | 15 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №2 Tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida mavjud emasligi haqida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligi to'g'risida kafolat xati

Тип: Текстовое значение

Описание: Tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida mavjud emasligi haqida, shuningdek ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligi to'g'risida kafolat xati Pdf pormatda

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **КАРШИ АРХИЛЮКС ХК** | 15 | 15 | 15 | Экспертная | | |
| **TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK** | 15 | 15 | 10 | Экспертная | | |

Критерий №3 Мутахасис ходимлар ва мажуд техник абоблар тугрисида маьлумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Мутахасис ходимлар ва мажуд техник абоблар тугрисида маьлумот pdf format

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **КАРШИ АРХИЛЮКС ХК** | 25 | 25 | 25 | Экспертная | | |
| **TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK** | 25 | 25 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №4 Давлат солиқ қумитасидан қарздорлиги йуклиги бўйича маълмуот

Тип: Текстовое значение

Описание: Давлат солиқ қумитасидан қарздорлиги йуклиги бўйича маълмуот pdf pormatda

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **КАРШИ АРХИЛЮКС ХК** | 25 | 25 | 25 | Экспертная | | |
| **TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK** | 25 | 25 | 25 | Экспертная | | |

Критерий №5 Молиявий холати бўйича маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: сунги 3 йиллик айланма маблағлари туғрисида маълумот ва банкдан қолдиқ маблағлар тўғрисида маълумотнома охирги йиллик баланс ва молиявий натижа

Обязательность: Не критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **КАРШИ АРХИЛЮКС ХК** | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |
| **TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK** | 20 | 20 | 10 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|
| **TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK** | 15 000 000.00 | 14 950 000.00 | 12.05.2022 10:37:47 | 29.90 |
| **КАРШИ АРХИЛЮКС ХК** | 15 000 000.00 | 14 900 000.00 | 12.05.2022 10:32:35 | 30.00 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK** | 52.5 | 29.9 | 82.4 |
| **КАРШИ АРХИЛЮКС ХК** | 70 | 30 | 100 |

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 80181 от 12.05.2022 года на приобретение Palandara MFY 12ta qishloqlarda 200 ta sim yog'ochlarni beton stolbalarga almashtirish va elektr liniyasini ta'mirlash ishlariga loyiha smeta hujjatlarini tayorlash va ekspertiza xulosasini olish определила победителем:

КАРШИ АРХИЛЮКС ХК
205213359

и резервный исполнитель: TAYANCH ELEKTR MONTAJ XK (205006132)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|
| **Член комиссии** | IBRAGIMOVA DILSHODA O'TKIR QIZI | Согласен | |
| **Член комиссии** | XAKIMOV NASRIDDIN ZUVAYDULLAYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | NORQOBILOV AKRAM MAXMARAXIMOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | AMIROV BOBAMURAT YUSUBOVICH | Согласен | |
| **Председатель комиссии** | XAMIDOV ABDISAMI SAMATOVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП